



ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 02nd July 2022

KEY WORDS

onlayn, menejment,
gazeta, internet, media

INTERNET TAHRIRIYATINI BOSHQARISH

Dadaxon Raimboyev

Qoraqalpoq davlat universiteti

qoraqalpoq filologiya va jurnalistika

fakulteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969203>

ABSTRACT

Ushbu maqola internet saytlaridagi tahririyatning boshqarish menejmenti va iqtisodi haqida yozilgan.

Bugungi kunda internetning rivoji axboriy jamiyatda tashkil etishdagi intilishlar O'zbekiston Respublikasida ham internet tizimidagi ommaviy axborot vositasining rivojiga olib keldi. Oddiy ommaviy axborot vositasidan ularning farqi shundaki birinchidan ommaviy auditoriyaga kiritilganligi keng qamrovligi, korporativ xarakterga ega bo'lganligi. An'anaviy ravishda OAV ga quyidagilar kiradi. Matbuot, TV, reklama, bannerlar va panellari bugungi kunda g'arb mamlakatlari internetni to'laqonli ravishda ommaviy axborot vositasi turiga kiritishgan. Ammo milliy jurnalistikaga nazar tashlaydigan bo'lsak internetni 100% ommaviy axborot vositasi turiga kirita olmaymiz. Uning bugungi kunda faqat bir qismigina ommaviy axborot vositasi funksiyasini bajarmoqda standart materialning manba axborot foydalanuvchi yoki iste'molchi sxemasi bo'yicha ishlamoqda. Bu borada natija kommunikatsiya turli xil ko'rinishlarda yuzaga keladi. 3ta davrli

sahifadan elektron pochtagacha bu yerda manba faqat bir kishi yoki bir guruh jurnalistlar bo'lsa axborot jurnalistik material yoki saytdagi kichik ma'lumot matni bo'lishi mumkin. Foydalanuvchi yoki iste'molchi bir auditoriya ham bo'lishi mumkin. Mustaqil ravishda tijorat va ishbilarmonlik faoliyatini yuritish uchun tahririyat huquqiy shaxs maqomida bo'lishi lozim. Buning uchun tahririyat muassis tomonidan mahalliy hokimlik organlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan shakllardan birini tanlagan holda xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ro'yxatdan o'tishi kerak. Mana shu narsa muassis va tahririyat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanib belgilab beradi. Xususan tahririyat mulkining egasiga moliyaviy mablag'lar qanday ishlatiladi foyda kimlar o'rtasida va qanday taqsimlanadi kabi savollarga javob beriladi. Mazkur tashkiliy-huquqiy shakllari ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismga taalluqli shakllarni muassis



tanlaydi bitta sharti uning asosiy maqsadi faqat foyda ko'rish bo'lmasligi kerak bu holda tahririyat davlat muassasasi nodavlat notijorat tashkiloti yoki boshqa shaklda ro'yxatdan o'tkaziladi. Mobodo moliyaviy foyda ko'rish maqsadi birinchi o'rinda tursa tahririyat mas'uliyati cheklangan jamiyat xususiy korxonalar yoki aksiyadorlik jamiyati shaklida ro'yxatdan o'tkaziladi. Har bir shaklining o'ziga xos tomonlari bo'lib ular tahririyat mulki va tadbirkorlik ishbilarmonlik faoliyatidan keladigan foydaga egalik qilish tahririyatining mustaqil balansiga bank muassasalarida o'z hisob raqamiga o'z muhriga ega bo'lishi noshirlik va tovar belgisi hamda gazeta nomiga egalik qilish ishlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek internet tahririyatining huquqiy shaxs sifatidagi tashkiliy-huquqiy shakli uning nizomida belgilangan muassis bosh muharrir munosabatlarining jamoani boshqarishning o'ziga xos tomonlarida ham ko'rinadi. Ommaviy axborot vositasi tahririyati menejmenti maqsad shakl va tashkiliy jihatlari ommaviy vositasi menejmenti talablarini hisobga olmaydi. Media biznes bilan shug'ullanish mumkin emas bu o'rinda menejment deganda ikki narsa tushuniladi. Birinchidan tahririyat jamoasini boshqarish bu jarayonining usulda shakllar ikkinchidan ma'lum bir kasb egalari jamoani boshqaruvchi rahbarlar kamandasini tashkil etuvchi menejerlar iqtisodiy omil tahririyat menejmentining butun jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Menejmentning maqsadini yo'nalishini va

xarakterini belgilab beradi chunki tasviriy mavjudligida nisbatan erkin faoliyat yuritishi uning iqtisodiy mustaqilligiga bog'liq bo'ladi. Aksariyat rahbarlarining asosiy maqsadi moliyaviy foyda ko'rish nashrning iqtisodiy bazasini mustahkamlash bo'lib qoladi. Shu sababli tahririyatni boshqarish va tahririyat menejment iqtisodiy xarakter kasb etadi. U jamoaning uning barcha xodimlarini iqtisodiy boshqarish shaklini oladi va ikkinchi maqsadida tahririyatning barcha xodimlarida iqtisodiy fikrlashni ularning faoliyati tahririyat iqtisodiy bazasiga ta'sir etishini his etishni shakllantirishdan iborat. Endi tahririyat rahbariyati uni boshqarishda bir qancha iqtisodiy tamoyillardan kelib chiqib ish yuritadi. Ularning birinchisi internet-nashrning foyda keltirishi faqat moliyaviy foyda keltirishigina internet ommaviy axborot vositasining yashab qolishini ta'minlaydi. Shu sababli uning barcha xodimlari faoliyati ana shu maqsadga yo'naltiriladi. Ikkinchi tamoyil ya'ni uning raqobatbardoshligini ta'minlash ham aslida foyda ko'rishga intilish bilan uzviy bog'liq chunki boshqa internet tizimidagi nashrlar bilan kuchli raqobatga bardosh beribgina foyda olish mumkin. Uchinchi tamoyil iqtisodiy tejamkorlikni nazarda tutish ya'ni tahririyat menejmentlarining faoliyatiga kamroq kuch energiya vosita va mablag` sarflab o'z maqsadlariga erishishga qaratiladi. Faoliyatning barcha yo'nalishlarida tejamkorlik vaqtida qisqa yo'l bilan kerakli natijalarga erishish ta'minlaydi.